

BADIIY ADABIYOTDA BOSH QAHRAMON TALQINI**Turdaliyeva Gulchiroy Anvarjon Qizi****Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti****yoshfilolog@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20594582>

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy asarda bosh qahramon va obraz masalasi ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganiladi. Muallif bosh qahramon yaratishda ijodkor asoslanadigan tamoyillar, xarakter ifodalashda qo‘llaniladigan usullar, prototip va badiiy to‘qimaning o‘zaro nisbati tahlil ostiga olinadi. Birinchi darajali obrazlarning asardagi vazifasi, voqealar rivojidadagi ahamiyati hamda o‘quvchi ongi va qalbiga ta’sir etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, adabiy qahramon va personaj tushunchalari orasidagi farqlar, obrazning tipiklashuvi va emotsional ta’sirchanlik masalalari yoritiladi. Tadqiqot o‘zbek, rus va jahon adabiyotshunosligidagi nazariy asoslarga tayanib, misollar orqali asoslanadi.

Kalit so‘zlar: bosh qahramon, obraz, personaj, xarakter, ichki konflikt, prototip, tipiklashtirish, badiiy to‘qima, emotsionallik, adabiyotshunoslik.

Abstract. This article explores the concept of the main character and artistic image in literary works from a scientific-theoretical perspective. The author analyzes the principles on which the creator relies in creating the main character, the methods used to express character, and the interrelation between prototype and artistic fiction. The role of primary images in the work, their significance in the development of events, and their potential to influence the reader's mind and heart are examined. The differences between the concepts of literary hero and character, the typification of images, and issues of emotional influence are also discussed. The research is based on theoretical foundations in Uzbek, Russian, and world literary criticism, substantiated through examples.

Keywords: main character, image, character, persona, internal conflict, prototype, typification, artistic fiction, emotionality, literary criticism.

Аннотация. В данной статье изучается проблема главного героя и художественного образа в литературном произведении с научно-теоретической точки зрения. Анализируются принципы создания главного героя, методы выражения характера, взаимосвязь прототипа и художественного вымысла. Рассматривается роль образов в произведении, их значение для развития сюжета и возможности воздействия на читателя.

Ключевые слова: главный герой, образ, персонаж, характер, внутренний конфликт, прототип, типизация, художественный вымысел, эмоциональность.

Kirish. Badiiy adabiyot – insoniyatning ma’naviy boyligini avloddan avlodga yetkazuvchi, hayot haqiqatini o‘ziga xos badiiy vositalar orqali aks ettiruvchi so‘z san’atidir. Ushbu san’at turining markazida inson obrazi – uning his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlari, iztiroblari va umidlari turadi. Shu bois badiiy asarning qimmatini ko‘p jihatdan unda yaratilgan qahramonlarning hayotiyliigi, ishonarliligiga bog‘liq.

Adabiyotshunoslik fanida qahramon, obraz, personaj, xarakter va tip kabi tushunchalar mavjud bo‘lib, ular bir qarashda o‘zaro ma’nodoshdek tuyuladi. Biroq ularni chuqurroq o‘rganib tahlil qilsak, bu atamalar ayrim jihatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanishini ko‘rish mumkin. Shu

sababli mazkur mavzu o‘zbek adabiyotshunosligida ham, jahon adabiyotshunosligida ham doimo dolzarb bo‘lib kelgan va bu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda o‘zbek adabiyotshunosligida bosh qahramon talqiniga oid yaxlit ilmiy yondashuv hali to‘liq shakllanmagan. Shu jihatdan mazkur maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi. Maqolaning maqsadi – "obraz", "qahramon", "personaj" va "xarakter" tushunchalari orasidagi farqlarni aniqlash, bosh qahramon yaratilish tamoyillarini o‘rganish va uning adabiy asardagi o‘rnini belgilashdan iborat. Maqolada qo‘yilgan muammolar ilmiy-nazariy tahlil yo‘li bilan o‘rganilgan bo‘lib, turli millat adabiyotlaridan olingan misollar asosida asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Mazkur maqolada bosh qahramon tushunchasi birinchi tizimli ravishda tahlil qilinib, o‘zbek, rus va jahon adabiyotshunosligidagi qarashlar qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyotshunosligiga yangi nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Obraz nazariyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu masala qadim zamonlardan beri ilmiy muhokamalar markazida turganligini ko‘ramiz. Aristotelning "Poetika" asarida uchraydigan va taqlid ma‘nosini beruvchi "mimesis" iborasi ayni "obraz" tushunchasini ifodalagan dastlabki ilmiy atamalardan biri hisoblanadi. Aristotel qahramonni hayotning badiiy akslanishi sifatida talqin qilgan ekan, uning inson tabiatini aks ettirishdagi ahamiyatini alohida ta‘kidlagan.

Nemis faylasufi Hegel "obraz" haqidagi ilk nazariy fikrlarni o‘zining estetikaga oid asarlarida bayon etdi. Ushbu atama rus adabiyotiga taniqli adabiy tanqidchi Belinskiy "Adabiy orzular" orqali kirib keldi. Professor Timofeyevning ta‘rificha: "Obraz quruq tushuncha yoki mavhum fikr emas, balki ko‘z oldingizga keltira oladigan, sezgi organlari orqali idrok etiladigan aniq hayotiy detal yoki hodisadir". [Timofeyev, 1976:84]. Bu ta‘rif badiiy obrazning ikki muhim jihatini – umumlashmalik va konkretlikni – bir vaqtning o‘zida qamrab oladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida "obraz" istilohi XX asrning 20–30-yillarida paydo bo‘lgan. Bu davrga qadar "tasvir", "timsol" kabi nomlar bilan atalgan. Izzat Sulton o‘zining "Adabiyot nazariyasi" asarida obraz tushunchasini keng va tor ma‘nolarda farqlab o‘rganadi [I.Sultonov, 1980]. Unga ko‘ra, keng ma‘noda obraz asardagi barcha detal, narsa-buyum, tabiat manzaralarini qamrab olsa, tor ma‘noda faqatgina inson tasvirini nazarda tutadi. T. Boboyev esa obrazni insonning ijtimoiy va individual xususiyatlarini birlashtiruvchi badiiy birlik sifatida ta‘riflaydi.

Fitrat o‘zining "Adabiyot qoidalari" asarida badiiy qahramon va o‘quvchi munosabatini maxsus o‘rganib, badiiy qahramonning o‘quvchi ongi va qalbiga ta‘sir ko‘rsatishdagi muhim rolini asoslab bergan [Fitrat, 84–85]. Ushbu ilmiy ishlar mazkur maqolaning nazariy asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- *tahliliy-tavsifiy metod* – asosiy tushunchalar va ularning xususiyatlarini tahlil qilish;
- *qiyosiy-tipologik metod* – turli millat adabiyotlaridagi qahramon yaratish tamoyillarini solishtirish;
- *tizimli yondashuv* – bosh qahramon, obraz, personaj va xarakter tushunchalarini yaxlit tizim sifatida o‘rganish;
- *germenevtik metod* – adabiy matnlarni chuqur talqin qilish.

Tadqiqotning manba bazasini Aristotel, Hegel, Belinskiy, Timofeyev, Tolstoy kabi jahon adabiyotshunosligining klassik vakillari asarlari, hamda A.Fitrat, Izzat Sultonov, T. Boboyev, Qozoqboy Yo‘ldosh kabi o‘zbek adabiyotshunos olimlari ilmiy ishlari tashkil etadi. Shuningdek, o‘zbek, rus va jahon adabiyotidan olingan konkret asarlar tahlilga tortildi.

Tadqiqot doirasi: maqolada bosh qahramon tushunchasi uchta asosiy aspektda – nazariy-terminologik, ijodiy-metodologik va amaliy-estetik jihatdan o‘rganiladi. Bu yondashuv bosh qahramon fenomenini yanada chuqurroq tushunishga va adabiy tahlilning yangi metodologik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Obraz va qahramon tushunchasining ilmiy tavsifi

Adabiy atamalarni o‘rganishda "obraz" so‘zining o‘rni alohidadir. Bu so‘z keng va tor ma‘nolarda qo‘llanadi. Keng ma‘noda asardagi barcha detal, narsa-buyum, tabiat manzaralarini ham qamrab olsa, tor ma‘noda faqatgina asardagi inson tasvirini nazarda tutadi. Obraz tushunchasi tor ma‘noda qo‘llanganda "qahramon" yoki "adabiy qahramon" so‘zi bilan deyarli ma‘nodoshlik hosil qila oladi. Asardagi hayvonot dunyosi, asar tili, detallar va adabiy qahramon – barchasi obrazlilik degan umumiy nom ostida birlashadi.

Adabiy turlar va ularning qahramonlariga kelsak, voqealar qanday yo‘sinda ifodalanishiga ko‘ra adabiyot uch asosiy turga ajratiladi: nasr, lirika va drama. Bu turkumlanish asardagi qahramonning tabiatini ham belgilab beradi. Nasriy asar qahramoni nasriy obraz hisoblanib, voqealar zanjiri, harakat va dialoglar orqali yuzaga keladi. Lirik obrazlar esa hissiy kechinma obrazi bo‘lib, ko‘proq lirik she‘rlarda namoyon bo‘ladi. Bunday asar qahramoni lirik qahramon deb yuritiladi; ko‘p hollarda u shoirning aynan o‘zi bo‘ladi yoki uning alter egosini ifodalaydi. Dramatik obrazlar drama qahramonlari sanalib, xarakteri aniq va keskin chiziqlar bilan belgilanadi. Ular ko‘pincha o‘zaro to‘qnashuv – konflikt – yordamida ochiladi.

Badiiy qahramonlar asardagi tutgan o‘rniga va vazifasiga ko‘ra bosh va yordamchi qahramonlarga ajratiladi. Asar voqealarining markazida turib, syujet liniyasini harakatlantiradigan, yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyani o‘zida mujassamlashtirgan obraz *bosh qahramon* deb yuritiladi. Yordamchi qahramonlar esa, odatda, *personaj* istilohi bilan belgilanadi. Ba‘zan asar tarkibida bir xil ahamiyatga molik bo‘lgan ikki yoki undan ortiq obrazlar ishtirok etishi mumkin. Bu ko‘pincha asarning hajmi va janri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

2. Bosh qahramon yaratilishining asosiy tamoyillari

Badiiy asarda inson hayotini to‘laqonli tasvirlash uchun quyidagi to‘rt asosiy unsur bo‘lmog‘i zarur: umumlashmalik, konkretlilik va individuallilik, badiiy to‘qimadan foydalanish hamda tasvirda emotsionallikka erishish. Bu to‘rt unsur badiiy obrazning asosiy jihatlari sanalib, ularni alohida-alohida tahlil qilish obrazning tuzilishi, tabiati va vazifasini anglashga yordam beradi.

Umumlashmalik – bu badiiy qahramonning muayyan bir davrning, ijtimoiy muhitning, millat yoki insoniyatning tipik vakiliga aylanishi demakdir. Adabiy qahramondagi umumlashma jihatlarda o‘quvchi o‘zini ko‘ra olgandagina qahramon tipiklashadi va maqsadiga erishadi. Shunday ekan, muallif xususiy bir insonni tasvirlarkan, aslida butun bir ijtimoiy guruh yoki inson tabiati haqida so‘zlaydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" asaridagi Otabek obrazi o‘z davri ziyolisining tipik vakili sifatida umumlashma xususiyat kasb etadi.

Konkretlilik va individuallilik esa qahramonni boshqalardan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarni anglatadi: nutqi, yurish-turishi, ko‘rinishi, odatlari, his-tuyg‘ulari. Ana shu individual xususiyatlar qahramonni jonli qiladi va o‘quvchi xayolida uzoq muddatli iz qoldiradi. Dostoyevskiyning Raskolnikov yoki Tolstoyning Anna Karenasi – bu obrazlar o‘zlarining individual xususiyatlari bilan ajralib turadi va shu bois ular millionlab o‘quvchilar ongiga chuqur singib ketgan.

Badiiy to‘qima – ijodkorning hayotiy materialdan foydalanib, uni qayta yaratishi va estetik shaklga solishidir. To‘qima yordamida muallif hayotiy voqelikni o‘zgartiradi, qayta tuzadi va yangi,

estetik jihatdan mukammal bir dunyo yaratadi. Bu jarayon haqiqiy badiiyatning asosiy belgisidir. Emotsionallik esa o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishning eng muhim vositasidir. O‘quvchi qahramonga qo‘shilib kulsa, yig‘lasa, o‘yga tolsa, zavqlansa, nafratlansa yoki g‘azablansa – ana o‘shanda asar o‘zining emotsional vazifasini bajargan bo‘ladi.

3. Prototip va badiiy to‘qimaning o‘zaro nisbati

Asar qahramonini yaratishda ijodkor ko‘pincha prototipdan foydalanadi. Prototip – hayotda mavjud bo‘lgan, muallif kuzatgan va asariga asos qilib olgan real shaxsdir. Prototip asardagi to‘qima va hayotiylikni omuxtalashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq prototip hayotdagi shaxsning aynan nusxasi emas, balki sayqallangan, tadqiq etilgan va ma’lum maqsad hamda vazifaga yo‘naltirilgan shakldir.

Ijodkor prototipning individual xususiyatlarini saqlagan holda ularni umumlashtirib, tipik qiyofaga aylantiradi. Natijada badiiy obraz asardagi voqea-hodisalarning mohiyatini ochibgina qolmay, hayot haqiqatini ro‘yobga chiqarish vositasiga ham aylanadi. Mashhur adabiyotshunos A.Tolstoy ta’kidlaganidek, ijodkor o‘z qahramonini yaratayotganda hayotdan olgan kuzatishlarini badiiy tafakkur bilan sintez qiladi. Bu jarayon oddiy nusxa ko‘chirish emas, balki ijodiy qayta yaratishdir [Tolstoy, 1958].

4. Bosh qahramon va ijodkor shaxsiyatining o‘zaro bog‘liqligi

Adib yoki shoirning hayoti, tarjimai holi haqida so‘z ketganda u o‘z-o‘zidan shu ijodkor yaratgan adabiy qahramonga borib bog‘lanadi. Chunki bosh qahramon ijodkorning shaxs sifatidagi olamini namoyon etib, uning inson dunyosini qanchalik anglashini va asarining ma’naviy qimmatini ko‘rsatib beradi. Shuning uchun Abdulla Qodiriy to‘g‘risida so‘z yuritilganda beixtiyor u yaratgan Otabek, Kumush, Anvar, Ra’no kabi adabiy qahramonlar eslanadi.

Aleksandr Pushkinning tarjimai holi Onegin, Tatyana; Rabindranat Tagorning dunyosini Gora, Binodini kabi qahramonlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Fyodor Dostoyevskiy deganda xayolda atrofdagi kishilarning fe‘l-atvori, o‘zaro munosabatlari tufayli iztirob chekkan Mishkin, Raskolnikov siymolari jonlanadi. Muxtor Avezov deganda esa qozoq elining dardi va tashvishi bilan yashagan, gumanist shoir Abay obrazi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, bosh qahramon nafaqat asarning markaziy kuchi, balki ijodkorning badiiy-falsafiy konsepsiyasini mujassam etuvchi vositadir. Qahramon orqali muallif o‘z davri, jamiyati va insoniyat haqidagi teran mulohazalarini ifoda etadi. Shu jihatdan yirik ijodkorning asarlarini o‘rganishda uning bosh qahramonlari tizimini tahlil qilish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

5. Bosh qahramon va o‘quvchi munosabati: amaliy ahamiyat

Kishining ichki olamini hech qanday oyna yoki ko‘zgu to‘liq ko‘rsatib berolmaydi. Odam esa toki o‘zi ko‘rmaguncha, his qilmaguncha boshqalarning ta’rif-tavsifidan qanoatlanmaydi. Chunki boshqalarning bahosida subyektiv munosabat ustun turadi. Inson oynada o‘zining tashqi qiyofasini to‘liq ko‘rolmaganidek, fe‘l-atvorini ham boshqalarning istagi yoki talabiga muvofiq osongina o‘zgartirolmaydi.

Kishi fe‘l-atvoridagi illat va nuqsonlarni o‘zi anglab yetmaguncha, ulardan xalos bo‘lolmaydi. Boshqalarning tanqidlari uni tuzatishdan ko‘ra ko‘proq asabiylashtiradi, ruhan azoblaydi. Haqiqatni bilish, o‘zini anglash g‘oyat mashaqqatli va murakkab kechadi. Ayni hodisa g‘oyat sirli jarayon ekanligi bois har bir odam qiynaladi, ikkilanadi, yanglishib xato qiladi.

Bosh qahramonlar ana shu vaziyatda alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Ular har bir kishining qilgan ishlari, fe‘l-atvori, boshqalar bilan muomala-munosabati to‘g‘risida o‘zicha o‘ylab ko‘rishi, mushohada yuritishi uchun ulkan imkon yaratadi. O‘quvchi yoki tomoshabin Navoiy,

Shekspir, Dostoyevskiy, Tolstoy kabi mutafakkirlarning, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor kabi adiblarning asarlaridagi qahramonlarni jonli, tirik insonlar sifatida tasavvur qiladi.

Fitrat taʼkidlaganidek, bunday asarlarning qahramonlari "tirikchiligimizda boʻlib turgʻon koʻp voqealarning qorongʻu puchmoqlarini oydinlatib koʻrsatadir. Yomonligʻi tuzukkina sezilmagan koʻp odatlarimizni butun fojilik natijalari bilan gavdalandirib, oʻzimizga koʻrsatadir" [Fitrat, 2006:84–85]. Demak, bosh qahramon – bu shunchaki asar syujetining harakat kuchi emas, balki oʻquvchini hayot haqida, insonning oʻz-oʻzini anglashi haqida tafakkur qilishga undaydigan kuchli badiiy vositadir.

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, "obraz", "qahramon", "personaj" va "xarakter" atamalarining oʻz nazariy chegarasi boʻlib, ularni toʻgʻri farqlash adabiyotshunoslik tahlilining sifatini oshiradi va badiiy asarni ilmiy jihatdan toʻgʻriroq oʻrganish imkonini beradi.

Ikkinchidan, bosh qahramon asarda gʻoyaviy markazni tashkil etib, yozuvchining badiiy-falsafiy konsepsiyasini mujassam etadi. Uning obrazida ijodkorning hayotga, jamiyatga va insonga boʻlgan munosabati aks etadi.

Uchinchidan, qahramon yaratishda umumlashmalik, individuallilik, badiiy toʻqima va emotsionallik kabi toʻrt unsur birgalikda ishlashi zarur. Ushbu toʻrt unurning uygʻun holda qoʻllanilishi qahramonning badiiy jihatdan toʻlaqonli chiqishini taʼminlaydi.

Toʻrtinchidan, prototipdan foydalanish muallif ijodining boyligini koʻrsatsa-da, prototip asardagi qahramonga aynan teng emas – u ijodiy qayta yaratish jarayonida yangi estetik qiymat kasb etadi va umumlashma tipga aylanadi.

Beshinchidan, bosh qahramon nafaqat estetik, balki tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyat kasb etib, oʻquvchini oʻzini anglashga, hayotni teranroq idrok etishga yoʻllaydi. Shu jihatdan u nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham tadqiq etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asardagi bosh qahramon talqini – bu faqat adabiy tahlil masalasi boʻlmay, insonning oʻzini va oʻz zamonini anglashiga xizmat qiluvchi maʼnaviy jarayondir. Kelajakda bu yoʻnalishda zamonaviy oʻzbek adabiyotidagi bosh qahramon tiplashtirish masalasi, raqamli adabiyotda obrazlar yaratish kabi yangi yoʻnalishlarni oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2006.
2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2002.
4. Yoʻldoshev Q. Inson tuygʻularining // Sharq yulduzi. – 2011.
5. Tolstoy A.N. O literature. – Moskva: Goslitizdat, 1958.
6. Timofeyev L.I. Osnovy teorii literatury. – Moskva: Prosveshcheniye, 1976.
7. Aristotel. Poetika / Tarjima: I.M.Nakhov. – Moskva: Xudozhestvennaya literatura, 1957.
8. Qodiriy A. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1984.
9. Choʻlpon. Asarlar: 3 jildlik. – Toshkent: Choʻlpon, 1994.
10. Gegel G.W.F. Estetika. T. 1. – Moskva: Iskusstvo, 1968.